

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ERDANOVA ZEBINISO ABILKOSIMOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KASBIY FAOLIYATNI
IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY VA
DERIVATSION XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Erdanova Zebiniso Abilkosimovna

Ingliz va o‘zbek tillarida kasbiy faoliyatni ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy va derivatsion xususiyatlari 3

Эрданова Зебинисо Абилкосимовна

Лингвокультурологические и деривационные особенности единиц, выражающих профессиональную деятельность в английском и узбекском языках 23

Erdanova Zebiniso Abilkosimovna

Lingoculturological and derivational features of units expressing professional activity in the English and Uzbek languages 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ERDANOVA ZEBINISO ABILKOSIMOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KASBIY FAOLIYATNI
IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY VA
DERIVATSION XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil2002 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasida www.samdchti.uz hamda "ZiyoNet" Axborot tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar: **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Davlatova Muhayyo Hasanovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18 ; e-mail:info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "____" "____" kunida tarqatildi.
(2024 yil "____" _____dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Yaxshiyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida kasb-hunar leksikasining milliy-madaniy, kognitiv-mental jihatdan o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish, turli millatlar ongida ularning ifodalanish usullarini tahlil qilish dolzarb muammolardan biri sanalmoqda. Bugungi kunda dunyo tilshunoslarining asosiy tadqiqot masalalaridan biri hisoblangan antropotsentrizm nazariyasini kognitiv-mental kategoriya sifatida tahlil etilishi, inson faoliyatida kasb-hunarga oid til birliklarining qo'llanilishi va ularning lug'atlarda muhimligiga ko'ra yoritilishi hamda har bir til milliy-madaniy xususiyatlarining ilg'or uslub va metodlar asosida talqin etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, dunyo tillarida kasbiy faoliyatni ifodalovchi til birliklarning derivatsion va lingvomadaniy xususiyatlarini zamonaviy lingvistik usullar asosida tadqiq etish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida tilning leksik-semantik tizimini chog'ishtirma-tipologik jihatdan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri sanaladi. So'nggi davrlarda olimlar e'tiborini tortgan zamonaviy tilshunoslikning inson va uning kasbiy faoliyatini ifodalovchi antropotsentrizm tushunchasi bilan bog'liq ko'pgina tadqiqotlarda ushbu sohaga oid terminologik birliklar keng yoritilmoqda. Tillardagi antropotsentrik nazariyaning konseptual tahlilini jahon tilshunosligining so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda tadqiq etish orqali dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda tilshunoslikning dolzarb masalalari sirasiga kiruvchi tillararo qiyosiy va chog'ishtirma tahlillar tipologiyasi va etimologiyasini o'zaro konseptual qiyoslash borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi. O'zbek tilining muhim jihatlarini xorijiy tillar bilan qiyoslash orqali uning nufuzini oshirish choralari ko'rildi. "...O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishi va istiqboldagi vazifalari belgilab berildi".² Jamiyatda insonning mehnat faoliyati turli ijtimoiy-siyosiy sohalarda, madaniy qatlamlarda asrlar davomida sayqallandi. Turli kasb-hunarga oid leksemalarni to'plash va ularning lisoniy: leksik-semantik, tarixiy-etimologik, derivatsion, leksikografik va qo'llanish xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik fanining muhim masalalaridan biridir. Shu paytgacha ingliz va o'zbek tillaridagi tarixiy va zamonaviy kasb-hunar nomlari maxsus to'planmagan va lingvistik nuqtai nazaridan qiyosiy-chog'ishtirma tadqiq etilmagan. Shu bois, ingliz va o'zbek tillaridagi kasb-hunar nomlari tadqiqiga doir mazkur dissertatsiya dolzarblik kasb etadi.

O'zbekistonda ta'limning har bir bosqichida chet tilini o'qitish va rivojlantirish bo'yicha turli qaror va farmonlarning qabul qilinishi, bu sohada turli zamonaviy metodlardan foydalanib, ingliz va o'zbek tillarini qiyosiy hamda chog'ishtirma usullarda talqin qilinishiga turtki bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni. Xalq so'zi gazetasi, 2020 - yil 21- oktabr, №221-222 (7723-7724)

Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF №5847-son “O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF №5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-oktabrdagi PF №6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF №60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2018-yil 5-iyundagi PQ №3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi PQ №5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. XX – XXI asrlarda fanga kirib kelgan “antroposentrizm” tushunchasi inson ongi va aqliy faoliyatini biosfera va evolyutsiya bilan bog‘laydi. T.Kunning fikricha, “...inson faoliyatidagi muammoni hal qilishda duch kelgan muvaffaqqiyatsizliklar, yangi nazariyaning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi...”³ Antroposentrizm nazariyasining asosini I.A.Boduen de Kurteney, F.de Sosyurning asarlarida, rus tilshunos olimlar E.S.Kubryakova guruhlashtirib⁴, A.E.Levitskiy kognitiv funksional yondashib⁵ tahlil etdilar. V.Gumboldt ta’kidlaganidek, tilning mohiyatini anglash va uni izohlashda inson faoliyati dunyo bilan takomillashadi. Uning nazariyasini qozog‘istonlik tilshunos

²2019-yil 8-oktabrdagi PF№5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 - yil 21 - oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”Farmoni, 2020-yil 30-oktabrdagi PF №6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF №60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ №3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ № 5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

³Кун Т. Структура научных революций / Пер. с англ. И. З. Налетова; Общ. ред. и послесл. С. Р. Микулинского и Л. А. Марковой. - М.: Прогресс, 1975. – С. 110.

⁴ Бодуэн де Куртэне И.А. Избранные труды по общему языкознанию Том 2. М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 343 с.; Кубрякова Е.С. Парадигмы научного знания в лингвистике и ее современный статус // Известия АН. Серия литературы и языка, 1994. – Т. 53, № 2. - С. 3-15.

⁵ Левицкий А.Э. Функциональный подход в современной лингвистике // StudiaLinguistica / Київський університет, 2010. – № 4. - С. 31-38.

F.Orazboyeva, rus tilshunosi A.V.Guliga va boshqalar rivojlantirdi⁶. Kasb-hunarga oid leksik birliklar tahlilini E.Yu. Novikova, ayollarga xos kasb nomlarini M.E.Fedotova, ijtimoiy sohadagi kasb nomlarini A.V.Dushkin, kasb nomlarining genderologik xususiyatlarini L.I.Vasiliyeva va A.V.Kirilina tahlil qilishgan⁷.

O‘zbek tilida kasb-hunarga oid atamalarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiqotchi olimlar S.Usmanov, U.Tursunov, D.Saidkadirova, O.S.Axmedov, M.Aliyeva, N.Maxkamov, M.Muhammadaliyeva, D.Kadirbekovalar⁸ mukammal o‘rganishgan. Ingliz tiliga oid kasb-hunar atamalarini X.D.Paluanova, D.Sageder, M.Rosita, B.Dzukanova, V.N. Shevchuklar⁹ olib borgan tadqiqotlarida tahlil qilishdi.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlilida ingliz va o‘zbek tilshunosligiga oid kasb-hunar leksemalarining derivatsion, tarixiy-etimologik, leksik-semantik ma’no o‘zgarishlari, lingvomadaniy, ijtimoiy, estetik ko‘lamda o‘rganish, frazeologik, paremiologik va badiiy adabiyotda qo‘llanilish usullari bilan bog‘liq bir qator masalalarning umumlashtirilgan holda chog‘ishtirma aspektida maxsus tadqiq etilmaganligi ushbu mavzuni monografik planda o‘rganishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

⁶Бодуэн де Куртэне И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т. 2. М.: Изд-во АН СССР. 1963. – С. 71; Гулыга А.В. “Немецкая классическая философия”. - М., 1986. - 334с; Оразбоева Ф. Тилшунослик муносабати. Олмата: Луғат, 2005.- 535 б.

⁷Новикова Е.Ю. Структура, семантика и тенденции развития наименований лиц по профессии в современном немецком языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2006.-218 с.; Федотова М.Е. Наименования лиц женского пола по профессии в современном немецком языке: Дисс....канд. филол. наук. – Москва, 1999. – 224 с.; Душкин А.В. Сопоставительный анализ стилистически маркированных наименований лиц по профессии в современном немецком и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1978. – 144 с.; Васильева Л.И. Суффиксальное словообразование наименований лиц по профессии в русском и украинском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. - М., 1971. – 231 с.; Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – Москва: Изд-во «Институт социологии РАН», 1999. – 180 с.; Кирилина А.В. Гендерные аспекты языка и коммуникации: Дисс. ... доктора филол. наук. - М., 2000. – 250 с.; Клименко Е.О. Менеджер – он или она? //Сборник тезисов «Гендер: язык, культура, коммуникация». - М., 2003. – С. 64.

⁸Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. -Тошкент, 1968. - 32 б.; Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, 1975. - 258 б.; Саидкадинова Д. Терминология интернет в русском и узбекском языках // Научный вестник АНГУ, 2011. - №3, - С. 97-99; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол.фан.д-ри. ... дисс. –Т., 2016. – Б.21; Алиева М. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дис. автореф. - Фарғона, 2018. - 52 б.; Маҳкамов Н. Терминологик тамойиллар ва халқаро термин-элементлар // “Хорижий сўз ва терминлардан фойдаланишда меъёр ва миллий-ассоциатив фикрлаш муаммолари”мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. — Тошкент, 2011. – Б. 212; Муҳаммадалиева М. Ўзбек тилидаги касб-хунар номларининг лексик-семантик ва деривацион хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2021. – 60 б.; Кадирбекова Д. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Филол.фан.ном...диссер. автореф. – Тошкент, 2017. - 32 б.

⁹Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари: Фил. фанлари доктори дисс. автореф. – Т., 2016.- 88 б.; Sageder D. Terminology Today: A Science, an Art or a Practice? Some Aspects on Terminology and Its Development Brno Studies in English Volume 36, No. 1, 2010. <http://www.phil.muni.cz/plonedata>. Rosita M. Understanding the language of medicine. – Aracne, 2009. – 164 p. Dzukanova B. (2006). Negative affixes in medical English. // Bratisl Lek Listy, 2006. - № 8. – P. 332-335. Шевчук В.Н.Производные военные термины в английском языке. – М., 1983.– 198 с.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi kasb-hunarga oid til birliklarining lingvomadaniy, derivatsion va semantik xususiyatlarini ochib berish hamda ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillarida kasb-hunarga oid nomlarning leksik-semantik, lug‘aviy ma’nolarini qiyoslash hamda qiyoslanayotgan tillarga oid kasbiy terminlarni o‘rganish va tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi professionalizmlarning tarixiy-etimologik qatlamini ochib berish, ularning derivatsion manbalarini va modellarini aniqlash;

kasb-hunar nomlarining sinonimik, polisemantik, frazeologik, paremiologik va genderlik hodisalarini leksik qatlamlarda o‘rganish;

qiyoslanayotgan tillardagi kasb-hunarga oid leksemalarning badiiy matnlarda lingvomadaniy ifodalanish jarayonlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillarining tarixiy va zamonaviy lug‘atlarida, xalq og‘zaki ijodi namunalarida va badiiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan kasb-hunarga oid til birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida shakllangan kasb-hunarga oid nomlarning lug‘aviy-ma’nosi, derivatsion xususiyatlari, ularning lingvomadaniy o‘xshash jihatleri va farqli tomonlarining qiyosiy tasnifi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-chog‘ishtirma, tarixiy-etimologik, leksik-semantik va derivatsion metodlarga murojaat qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida kasb-hunarga oid til birliklarining semantik, derivatsion, lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma jihatdan ochib berilib, qiyoslanayotgan tillarda ularning o‘xshash va farqli jihatleri aniqlangan;

ikki til lug‘atidagi kasb-hunarga xos so‘zlarning lug‘aviy rivoji, ularning takomillashuvining lisoniy va nolisoniy omillari, tarixiy-etimologik manbalari aniqlanib, leksik-semantik aspektida isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tillariga oid kasb-hunar leksemalarining leksik, frazeologik, paremiologik qatlamlarda ifodalanishi, kasb-hunarga oid nomlarning mavzuviy guruhlanishi va ularga oid terminlarning paydo bo‘lish omillari dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillari badiiy matnlarida kasb-hunarga oid til birliklarining ifodalanish darajasi ijtimoiy-madaniy, kommunikativ, milliy-me’yoriy mezonlar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillariga oid kasb-hunar nomlarining leksik, leksik-semantik, derivatsion talqinlari asosida o‘quv adabiyotlar, uslubiy tavsiyalar, o‘quv qo‘llanmalar materiallarini yaratishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

dissertasiya materiali ingliz va o‘zbek tillarida kasb-hunarga oid izohli, sohaviy va atamashunoslik lug‘atlarini tuzishga manba hisoblangan kasb-hunar nomlarining tasnifi ishlab chiqilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi kasb-hunarga oid nomlarning frazeologik, paremiologik va badiiy matnlar tahlillari orqali erishilgan natijalar “Qiyosiy

tilshunoslik”, “Madaniyatlararo muloqotni shakllantirish”, “Tarjimashunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik” sohalari uchun muhim nazariy qarashlar yoritilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi tadqiqotda qo‘yilgan maqsadning aniqligi va unda tahlil etilgan ma’lumotlarning ishonchli manbalar asosida yoritilganligi, ingliz va o‘zbek tillaridagi kasb-hunarga oid nomlar tavsifiy, qiyosiy-tipologik tahlil metodlari asosida va shu bilan bir qatorda, keltirilgan tahlil, xulosa va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalari ingliz va o‘zbek tillari leksikologiyasida kasb-hunar nomlari hamda sohaviy terminlarning leksik-semantik mavzuviy rivoji, takomili, derivatsion va lingvomadaniy xususiyatlarini ilmiy-nazariy boyitishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqotni shakllantirish va qiyosiy tipologiya sohasiga doir muammolarni hal etishda, izohli, sohaviy, atamashunoslik lug‘atlari, shu bilan bir qatorda, ingliz va o‘zbek tillari leksikologiyasiga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalarda kasb-hunarga oid so‘zlarning tahliliy, qiyosiy-chog‘ishtirmasini takomillashtirishga manba va material vazifasini bajarishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida kasbiy faoliyatni ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy va derivatsion xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida kasb-hunarga oid til birliklarining semantik, lingvomadaniy, derivatsion xususiyatlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tasniflari va qiyoslanayotgan tillarda ularning o‘xshash va farqli jihatlariga doir ilmiy-nazariy xulosalardan “Developing Intercultural Competence in Teaching Foreign Languages” nomli o‘quv qo‘llanma yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi “302” – sonli buyrug‘i). Mazkur o‘quv qo‘llanmadan foydalanish natijasida «Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)» 60111800 - ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasb-hunar leksikasiga oid amaliy ko‘nikmalari kengaytirilgan, kasb-hunar nomlarining yasalishi, lingvomadaniy xususiyatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlari boyitilgan;

ikki til lug‘atidagi kasb-hunarga xos so‘zlarining lug‘aviy rivoji va takomillashuvining lisoniy va nolisoniy omillarini, tarixiy-etimologik manbalarini tizimli ravishda yoritib berish bilan bog‘liq usullardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018 yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: O‘zbekistonda Oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 15-martdagi 706/30.02.01 – son ma’lumotnomasi) Natijalar kasb-hunarga oid tushunchalari orqali ingliz va o‘zbek xalqlari madaniyatida shakllangan obrazli va qadriyatlarga oid tasavvurlarni tahlil qilish, ularning tarixiy-etimologik tahlil etish usullarini o‘rganish, shuningdek, milliy oliy ta’lim tizimida chet tilini mutaxassislik predmeti sifatida o‘qitish jarayonida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish imkonini bergan;

ingliz va o'zbek tillariga oid kasb-hunar atamalarning leksik, frazeologik va paremiologik qatlamlarda ifodalanishi, tahlil qilinishi, kasb-hunarga oid nomlarning mavzuviy guruhlanishi va ularga oid terminlarning paydo bo'lishini tasvirlashga oid materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining 2014-2016 yillarga mo'ljallangan Tempus Project dasturi 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the Development of Blended Masters Programmes" loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 15-martdagi 707/30.02.01 – son ma'lumotnomasi). Natijada oliy maktablarda ingliz va o'zbek tillarida kasb-hunarga oid izohli, sohaviy va atamashunoslik lug'atlarini tuzish, kasb-hunarga oid nomlarning mavzuviy guruhlanishini amalga oshirishdagi o'ziga xos etnomadaniy farqlarni tizimlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu kasb-hunar leksikasining terminologiya tizimidagi o'rnini belgilash bilan bog'liq assotsiativ eksperimentlar, so'rovnomalar o'tkazish imkonini bergan;

kasb-hunarga oid til birliklarining badiiy matnlarda qo'llanish darajasini ijtimoiy-madaniy, kommunikativ, milliy-me'yoriy mezonlar asosida tahlil qilish yuzasidan bildirilgan xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023- yil 8- aprel kuni efirga uzatilgan "Kun mavzusi" eshittirishining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 17-apreldagi №01-12/258-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega tavsiyalar haqida ma'lumotnoma berilgan va keyingi ko'rsatuvlarda ham foydalanish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar ko'rinishida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 16 ta ilmiy-tadqiqot ishlari chop etilgan, shulardan, 4 ta tezis, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta, respublika jurnallarda 2 ta maqola va 1 ta o'quv qo'llanma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ushbu qismda dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab

berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilingan ishlar ro'yxati, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Kasbiy faoliyatning til tizmidagi voqelanishi**» deb nomlangan bo'lib, unda ingliz va o'zbek tillariga oid kasb-hunar nomlari shakllanishi tarixiy-etimologik, genetik, muayyan til qatlamida yoki qardosh va noqardosh tillardan o'zlashganlik darajasi nazariy va amaliy asoslarda tavsiflangan.

Bobning "*Zamonaviy tilshunoslikda kasbiy faoliyatning aks etishi*" deb nomlangan birinchi faslida XX-XXI asrlarda tilshunoslikka kirib kelgan "Antroposentrizm paradigma" tushunchasining inson ongi va aqliy faoliyati sohosi bilan bog'liq ilk qarashlar hamda zamonaviy tilshunoslikning asosiy to'rt yo'nalishlari: ekspansionizm, antroposentrizm, funksionalizm va tushunish tendensiyasining mohiyati haqida so'z yuritilgan.

Taniqli tilshunos olim V.Gumboldt shunday ta'rif beradi: "...tilning mohiyatini anglash, uni izohlash faqat ko'p tomonlama asosga ega bo'lgan inson faoliyati va u yaratgan dunyoda ko'rish mumkin..."¹⁰.

Zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri bo'lgan antroposentrizm hozirgi kunda tadqiqotchi olimlar nazariga tushdi. O'zbek tilshunoslari, jumladan, Sh.Safarov, N.Mahmudov, F.Orazboyeva¹¹ ilmiy izlanishlar olib borgan. Bu yo'nalishda E.S.Kubryakova, A.E.Levitskiy, T.A.Orlova, V.A.Maslova, O.I.Leshenko, B.A.Serebrennikova, Yu.S.Stepanov¹² kabi ko'plab jahon tilshunoslari bir qator tadqiqotlar olib borishdi. Antroposentrik ilmiy tadqiqotlar falsafa, ekologiya, tilshunoslik, mantiq va boshqa fanlar bilan o'z tadqiqot ob'yektini bog'laydi.

Bobning "*Kasbiy faoliyat bilan bog'liq til birliklarning shakllanishi*" deb nomlanuvchi ikkinchi faslida til lug'atida shakllangan kasb-hunarga oid til birliklarning leksik-semantik qatlami ingliz va o'zbek xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy urf-odatlarida rivoj topishi, tarixiy-etimologik shakllanishi, yangilanishi va eskirishi tahlil qilingan.

Kasb-hunarga oid terminlarni o'rganishda L.P.Krisin, A.V. Dushkin, Ye.Yu.Novinkova, M.E. Fedotova, L.I.Vasileva, A.V.Kirilina, A.G.Anisimova, M.A.Shevchenko, Laurie Bauer., O.S.Axmanova, Sh.Raxmatullayev¹³ kabi

¹⁰ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.:Прогресс,1984. – С.69.

¹¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - Б. 5.; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йулларини излаб 5-сон, // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012, - Б. 3.; Оразбоева Ф. Тилшунослик муносабати. Олмата: Луғат, 2005. – Б.66.

¹² Кубрякова Е.С. Парадигмы научного знания в лингвистике и ее современный статус // Известия АН. Серия литературы и языка № 2, 1994. - С. 3-15.; Левицкий А.Э. Функциональный подход в современной лингвистике № 4. // Studia Linguistica / Київський університет, 2010. - С. 31-38.; Орлова Т.А. Антропотцентрическая координата одорической дескрипции (на материале текста романа Патрика Зюскинда "Perfume: The Story of a Murderer") Высшее гуманитарное образование XXI века: проблемы и перспективы: материалы седьмое международной научно – практической конференций. – Samara, 2012.- Р. 237-240.; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ.высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр Академия, 2001. – С. 6-7.; Лещенко О.И. Антропоцентричность как универсальный принцип организации языковой картины мира // М: – Філософія, 2014. - С. 171-179.; Серебренникова Б.А. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. – М.: Наука, 1988. - С. 8.; Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: опыт исследования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 552 с.

¹³ Крысин Л. П. Иноязычное слово в контексте современной общественной жизни № 6. // РЯШ, 1994. – С. 56-63.; Душкин А.В. Сопоставительный анализ стилистически маркированных наименований лиц по

tilshunoslarning qilgan izlanishlari e'tirof etilgan. Bundan tashqari, X.Saidqulov va Sh.Safarov ta'kidlaganidek, "kasb-hunarga oid atamalarni adabiyotshunoslikda yozuvchi qo'llaganida, ularning metaforik va ish faoliyatidagi denotativ-konstruktiv ma'nosi emas, balki jarayondagi stilistik muhitdan real hayotga ko'chishi talqin qilinadi"¹⁴. Demak, til sathida shakllangan kasb-hunarga oid so'zlarning ifoda rejasi muayyan kontekstda ifodalanadi. Bu jarayon bir tarafdin tilning moddiy resurslari, boshqa tarafdin tilning badiiy, normativ, grammatik, semantik uslublari (rasmiy, norasmiy nutqda, jargon va boshqalari) orqali tahlil qilinadi.

O'zbek tili izohli lug'atida "**kasb**" so'zi "hunar" so'zi bilan juftlashib talqin qilinadi. "Kasb" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, polisemantik so'z *kasaba* fe'lining "o'z mehnati bilan mablag' topmoq" ma'nosini, arab tilida "foйда", "daromad", "maosh" ma'nolarini ifodalaydi¹⁵. Bu so'z o'zbek tilida quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1. Inson faoliyatida ma'lum soha uchun tajriba, tayyorgarlik talab etadigan hunar; 2. Odat qilingan ish faoliyati; Bundan tashqari, "kasb" so'zi qatnashgan jumlar ham og'zaki nutqda keng tarqalgan: a) ega bo'lmoq, egallamoq; aks etmoq, ahamiyat kasb etmoq; b) biror mashg'ulotni odat qilmoq, doimiy ish-mashg'ulotiga aylantirmoq; kabi ma'nolarni beradi. Demak, kasb-hunarga oid til birliklari lingvistik "adabiy" elementlar negizida shakllanadi va tahlil qilinadi.

Ingliz tili lug'atida "kasb" so'zi "*profession*", "*occupation*" va "*work*" so'zlari bilan ifodalanadi; *Work*– "ish, kasb, faoliyat" tarjimalarini berib, asosan jismoniy yoki aqliy kuch sarflanadigan ish-faoliyat haqida gapirganda qo'llaniladi.

Bobning "*Tilshunoslikda kasb-hunar atamalarining o'rganilishi*" deb nomlangan uchinchi faslida tilshunoslikda inson faoliyatini ifodalovchi terminlar va so'z birikmalarining ma'lum bir soha yoki ishlab chiqarish sohasiga oid ekanligi va ularning kommunikatsiyada paydo bo'lishini, shakllanishini, tarkibi va nutqda qay holda ishlatilishi o'rganildi va tahlil qilindi. **Termin** so'zi lotin tilidan "terminus" so'zidan olingan bo'lib, "oxiri", "chek", "chegara" degan ma'nolarni anglatadi¹⁶. Olim V.N.Shevchuk "termin" so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Termin" – bu so'z ma'nosini anglatib, o'rta asrlarda "aniqlash", "ifodalash" degan ma'nolarni ifodalagan. Qadimgi fransuz tilida mavjud bo'lgan "terme"

профессии в современном немецком и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1978. – 144 с.; Новикова Е.Ю. Структура, семантика и тенденции развития наименований лиц по профессии в современном немецком языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2006. – 304 с.; Федотова М.Е. Наименования лиц женского пола по профессии в современном немецком языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1999. – 224 с.; Васильева Л.И. Суффиксальное словообразование наименований лиц по профессии в русском и украинском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1971. – 231 с.; Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – Москва: Изд-во «Институт социологии РАН», 1999. – 180 с.; Анисимова А.Г., Шетле Т.В. Роль терминологии при обучении языку для специальных целей № 3. // Филологические науки. – М., 2010. – С. 83-89.; Shevchenko M.A., Mitchell P.J., Ignatov A.A. Britaniya dengiz floti. Ingliz tili// O'quv qo'llanma: [harbiy faoliyatni lingvistik qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan]. – Tomsk, 2016. – 242p.; Laurie Bauer. English Word-Formation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – P. 20-21.; Ахманова О.С. Тилшunoslik terminlar lug'ati. – М.: Сов.энциклопедия.,1969. – 243 с.; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати 2-ж. – Тошкент: Университет, 2003. - 197 б.

¹⁴ Сайткулов Х., Сафаров Ш. Теория и практика терминологической номинации. - Самарканд: Изд-во СамГУ, 1986. - С. 48-59.

¹⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати 2-ж. - Тошкент: Университет, 2003. - Б. 197.

¹⁶ Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. - М., 1998. - С. 203.

leksemasi “so‘z” degan ma’noni anglatadi”¹⁷. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “termin” so‘zi hozirda “atama”, “istiloh” kabi so‘zlar bilan keng ifodalanib kelinmoqda. Lekin bu so‘zlar “termin” so‘zini to‘liq talqin qila olmaydi. Ensiklopediyada ifoda etilishicha, “atama” so‘zi orqali geografik ob’ektlar, atoqli nomlar ifodalansa, “istiloh” so‘zi asosan tarixiy matnlarda qo‘llaniladi¹⁸.

O‘zbek tili izohli lug‘atida kasb-hunarga oid terminlarning leksik ma’nosi ish faoliyatni bajaruvchi shaxsni aniqlab hamda ularni leksik-semantik guruhlariga ajratadi. Masalan: gazlamachilik ish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni *chitfurush, shoyifurush, do‘kondor, gazlamafurush, sotuvchi, ipakfurush* deb atasak, gazlamani tayyorlovchi shaxslarni: *bo‘zchi, adrasbof (adras to‘quvchi), zardo‘z, chokchi, shogird, gulabardor, bo‘yoqchi* deb nomlaymiz¹⁹.

Ingliz tili lug‘atidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bank-moliya, birja ishlariga oid ko‘plab terminlar: *delay of payment* – to‘lovni kechiktirish; *currency market* – valyuta bozori; *grossnational product* – umumiy milliy mahsulot; *global quota* – umumiy kvota kabi. Shuningdek, zid ma’noli so‘zlar leksik va morfologik shaklda kontekstda birlashib, leksik antonimlarni hosil qiladi: *import license* – import litsenziyasi; *export license* – eksport litsenziyasi; morfologik antonim so‘zlarga: *payment* – to‘lash; *non-payment* – to‘lamaslik; kabi bir qator misollarni keltiramiz. Ingliz tili leksikasida internet terminlari asosan “ot+ot” otlik birikma shaklidagi murakkab terminlaridir: *broadcast, keyword, keyshelf, keycap, fieldbus, datagram, chatbot, chatterbot, cardbus, backbone, checkpoint* va boshqalar.

Sport sohasiga oid terminlar: *belt* – belbog‘, *card (yellow, red)* – kartochka, *whistle* – hushtak, *shot (rounded iron ball)* – yadro kabilar. Shuningdek, sport sohasiga oid til birliklarga: *referee* – hakam, *defender* – himoyachi, *fan* – muxlis, *coach (trainer)* – murabbiy kabi; yoki sport mashg‘ulotlarida harakatni ifodalovchi til birliklar: *to kick* – tepmoq, *to block* – to‘smoq, *to break* – tanaffus kabi misollarni keltiramiz. Sport terminlari ingliz va o‘zbek til qatlamlarida o‘zlashma birliklar shaklida boshqa tillardan kirib kelgan. Sportga oid lug‘at tasnifiga ko‘ra, 306 ta o‘zlashma so‘zlar, ko‘proq Osiyo tillardan (149 ta), Yevropa xalqlari tillaridan (157 ta) termin o‘zbek tilli qatlamiga kirib kelgani dalillandi.

Ma’lumki, tibbiyot sohasiga doir terminlarning asosiy qismi affiksatsiya usulida yasalgan bo‘lib, ayniqsa, salbiy ma’noni beruvchi old qo‘shimchalar yordamida kasallik nuqsonlari ifodalanadi. Asosan salbiy ma’no anglatuvchi (*a-, dis-, in-, non-, un-*) old qo‘shimchalar, (*-less*) suffiksi va prefikslar (*anti-, contra-, counter-, de-, dis-, ex-, extra-, mal-*) qisman salbiy ma’noni nutqda ifodalaydi²⁰. Masalan: *antibiotic* – ba’zi mikroorganizmlar, hayvonlar va o‘simliklar hayoti jarayonida ishlanib chiqadigan va turli xil mikroblarning o‘sishi va rivojlanishini to‘xtatib qo‘yadigan moddalar (*a drug, such as penicillin, made by bacteria and used to cure a disease by killing the bacteria that cause it*); *contraception* – homiladorlikni oldini olish usullari (*the prevention of becoming pregnant*) kabi²¹.

¹⁷ Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке. - М., 1983. - С. 198.

¹⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: 2000. – 323 б.

¹⁹ Алиева М. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дис. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.17.

²⁰ Dziganova B. (2006). Negative affixes in medical English. // Bratisl Lek Listy, 2006. - № 8. – P. 332-335.

²¹ Macmillan student’s dictionary. Second edition. – Macmillan Education LTD, 1996.– P. 542.

Jamiyatdagi texnologiyaning jadal rivojlanishi yangidan-yangi kasb-hunar faoliyat turlari paydo bo'lishi bilan birga ularga tegishli bo'lgan terminlar, atamalar va til birliklarining muomalaga kirishiga sabab bo'lmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o'zbek tillarida kasb-hunarga oid til birliklarining semantik xususiyatlari”** deb nomlanib, mazkur bobda qiyoslanayotgan ikki til lug'atlariga mansub bo'lgan kasb-hunar nomlarining leksik-semantik qatlamlari tahlil qilingan. Bobning *“Kasb-hunarga oid til birliklarning sinonimiya va polisemiya holatlari”* deb nomlangan birinchi faslida sinonimiya va polisemiya hodisalari orqali ifodalanadigan kasb-hunar nomlari o'rganildi. Leksik sinonimiya hodisasida til birliklarining tor ma'noda to'liq, keng ma'noda qisman mos kelishi, o'zida semantik ohanglar va stilistik bo'yoqdorlik farqlarini saqlab qolishi tushuniladi²¹. Masalan: ingliz tilida *“academic”* so'zi *“I was never a particularly academic child. He was such a bookish student. “Academic” “bookish”* so'zlari leksik qatlamda bir-birining ma'nosiga yaqin so'zlar hisoblansada, ishlatilish jihatidan kontekstdagi ifoda maydonida turlicha talqin qilinadi.

Sinonimlar, asosan, ikki usulda shakllanadi: biri tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllansa, ikkinchisi boshqa tillardan o'zlashgan holda til lug'at boyligiga kirib kelishi. Masalan: *filolog – tilshunos – lingvist, dallol – diller – makler, quruvchi – me'mor – arxitektor* kabi misollarni keltirish mumkin.

Tilshunoslikda inson faoliyatiga oid so'zlarning ishlatilishida dubletlik hodisasi mavjud bo'lib, bir so'z o'rniga boshqa so'zni kontekstda ishlatish holatlarida ularni sinonimlarning bir turi deb qayd etiladi²². Masalan: *o'qituvchi – ustoz; astrolog – munajjim; inspektor – nazoratchi*. Ingliz tili lug'at boyligiga nazar tashlasak, kasb-hunarga oid til birliklarning dublikat shakllariga: *teacher – educator – tutor – instructor –pedagogue; worker – employee; doctor – expert – specialist – physician; mechanic – repairman* kabi til birliklar bir qarashda bir-biriga sinonim ko'rinsa-da, lekin ularning til sathida ishlatilish o'rni va vazifasiga ko'ra farqlanadi. Polisemiya hodisasi turli so'z turkumlari doirasida so'zning bir necha ma'nolarini anglatishi tushuniladi.

Hozirgi kunda tilshunoslikda mutlaq sinonimiya nazariyasi mukammal o'rganilmagan sinonimik so'zlar bilan chegaralangan ma'no beruvchi so'zlar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular ustida atroflicha tadqiqot olib borilmagan, shuningdek, ularning sinonimik nazariyasi va so'z variantlari o'rtasida muammolar tahlil qilinmagan.

Bobning *“Kasb-hunarni ifodalovchi arxaizm va neologizmlar tahlili”* deb nomlanuvchi ikkinchi faslida ingliz va o'zbek tillariga mansub kasb-hunarga oid so'zlarning eskirishi, arxaik shakllari va muomalada qo'llanishi haqida so'z yuritilgan.

Jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar ham til lug'atining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, mustaqillikdan keyin o'zbek tiliga ba'zi bir tarixiy leksik

²¹ Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. – Москва: Наука, 1977. – С. 112

²² Мухаммадалиева М. Ўзбек тилидаги касб-хунар номларининг лексик-семантик ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) дис. автореф. – Фарғона, 2021. – Б. 18.

birliklar qaytadan kirib keldi: *vazir, vazirlik, devonxona, hokim, g'azna, darvozabon, kotib* kabi, lekin bu kasb egalarining faoliyatida o'zgarishlar bor. Masalan: *darvozabon* – (darvoza + f. – qarovchi) 1. tarx. shahar yoki xon saroyi darvozasining qorovuli yoki soqchisi. *Hirot darvozariga darvozabonlardan tashqari yana otliq sarbozlar qo'ydi.* (Mirmuhsin, “Me'mor”). 2. sport. darvozani himoya qiluvchi o'yinchi. Darvozabonni aldab o'tib, to'pni darvozaga kiritmoq²³.

Tadqiqotimiz davomida kasb-hunar nomlarining ingliz xalqining ijtimoiy hayotiga ko'rsatgan ta'sirlaridan biri hozirda ularning insonlar ismi sharifi bilan bog'lanishidir. Masalan: *John Blacksmith, Peter Parker, Mary Webster, Archer, Butcher, Carter, Clark, Cooper, Cook*, va shu kabi. Bir odamni “Tomas Carpenter” deb atash, u tirikchilik uchun yog'och bilan ishlaganini. *Knight* ismli kishi esa qilich ko'targanini ifodalaydi. Bundan tashqari, o'rta asrlarda ism-shariflar o'zgaruvchan bo'lishi shaxsning kasbini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan. Masalan: *John Blacksmith* ismli shaxs keyinchalik ismini John Farrierga o'zgartirgan, ya'ni Temirchi Jon Mo'yna savdosi bilan shug'illanuvchi Jonga aylanadi.

Til rivojlanish tizimiga ko'p jihatdan so'zlarning yasalishi, yangi so'z modellarining paydo bo'lishi, eskirganlarining o'zgarishi yoki muomaladan chiqib ketishi, bundan tashqari, leksik birliklarning lug'atda kengayishi yoki kamayishi kabi muntazam harakatdagi tizim tushuniladi.

Bobning “*Kasb-hunar so'zlarning soha bo'yicha tasnifi*” nomli uchinchi faslida ingliz va o'zbek tillarida kasb-hunarga oid nomlarning asosiy mezonlari qiyosiy tasnifi va lingvomadaniy xususiyatlari yoritib berilgan.

Ingliz va o'zbek tiliga mansub kasb nomlari quyidagi mavzuviy guruhlarga ajraladi: **1. Maishiy xizmat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb nomlari:** bichiqchi, tikuvchi, abrbandchi, adrasbof, bo'zchi, bo'yinchado'z, gilamdo'z, do'ppido'z, zardo'z, to'quvchi, sartarosh, farrosh kabi. Ingliz tilida xizmat ko'rsatish va savdo-sotiqda faoliyat yurituvchilar “*Service and sales workers*”. Xizmat ko'rsatish sohasida “*Personal service workers*” *bartender, beautician, courier, chef, cook, F&B attendant, flight attendant, steward, hostess, stewardess, hair dresser, barber, spa attendant, tour guide, waiter* kabi xizmat ko'rsatish sohasiga oid kasb nomlari kiradi. **2. Ta'lim sohasiga oid kasb nomlari:** o'qituvchi, murabbiy, pedagog, tarbiyachi kabilar. Ingliz tilida o'qitish, ta'lim tarbiya berish tushunchasi chuqurroq talqin etiladi: **Lecturer** – (lot. “lector” ma'ruza o'quvchi kishi)²⁴. 1. a discourse given before an audience or class especially for instruction; 2. a formal reproof: *He is an experienced teacher and lecturer.* **3. Tibbiyot sohasiga oid kasb-hunar nomlari:** vrach, shifokor, jarroh (*xirurg*), ko'z shifokori (*okulist*), hamshira kabilar. **4. Qishloq xo'jaligiga doir kasb nomlari:** *dehqon, bog'bon, g'allakor, sholikor* va *xokazolar*. Ingliz tilida qishloq xo'jalik sohasiga kiruvchi kasb nomlari: *farmer, agronomist, soil scientist, forestrist, taxsonomist, yeoman, water* kabilar. **5. Tijorat bilan bog'liq:** *savdogar, sotuvchi, olib-sotar, attor, baliqchi, aspijallob, baqqol, budkachi, bo'yrafurush.* **6. Binokorlikka oid:** *quruvchi, arxitektor, me'mor, binokor, dizayner, naqqosh* kabi. Ingliz tilida bu

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд. – Тошкент: “ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 561.

²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилд. – Тошкент: “ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 495.

turkumga oid soʻzlar *plumber (santexnik), building painter (boʻyoqchi), tile layer (pliti, beton quyish bilan shugʻullanuvchi), mason (gʻisht teruvchi), architecture (meʻmor)* kabilar tahlil qilingan. **7. Hunarmandchilikka oid:** *zargarlik, toʻquvchilik, oʻymakorlik, zardoʻzlik, kashtadoʻzlik, kulolchilik, boʻzchilik, gilamdoʻz, koshinkor* shu kabi. **8. Sport sohasiga oid:** *kurash, koʻpkari, qilichbozlik, chavandozlik* kabilar. **9. Pazandachilikka oid:** *oshpaz, kabobpaz, xonimpaz, norinchi, kallapaz, boʻzagar* kabilar. **10. Huquq ishlariga oid:** *sudʻya, qozi, advokat, prokuror, tergovchi* va shu kabilar. **11. Harbiy sohaga oid:** *leytenant, serjant, qoʻmondon, askar, ofitser, voyenkom* kabi sohaviy unvon nomlari. **12. Ommaviy axborot vositalariga oid:** *jurnalist, muxbir, notiq, teleshahlovchi* va boshqalar. **13. Texnika sohasiga oid:** *mexanik, injener, texnik, zootexnik, elektrmontajchi, mashinist;* ingliz tilida: *mechanic, cartographer (map maker), electrical fitter, telecommunication engineer, fam mechanic, lab technician* kabilar. **14. Musiqa, sanʼat sohasiga oid:** *sozanda, qoʻshiqchi, musiqachi, otarchi, xofiz, raqqosa, cholgʻuchi, karnaychi, balletmaster, vokalist* kabilar. **15. Iqtisod, moliya, menejment, marketing sohalariga oid:** *bankir, kassir, inkassator, iqtisodchi, moliyachi, broker, auditor, hisobchi, marketolog* kabi. **16. Aloqa tizimiga oid kasb nomlari:** *operator, telefonist, chopar (eski), jarchi* kabilar. Kelgusida kasb nomlarini sheva va lahjalarda, adabiy tilda, rasmiy va norasmiy muloqotda qiyosiy oʻrganish va ularni izohli lugʻatlarda yoritish muhim vazifalardan biri boʻlib qoladi.

Bobning “*Kasbiy leksikaning konnotativ belgilari*” deb nomlangan toʻrtinchi faslida kasb-hunarga oid leksemalarning konnotativ maʼnolari (maʼno boʻlinishi mavjud), asl maʼnolari (ingerent) va kontekstli maʼnolari tasniflangan.

Tadqiqotda ijobiy maʼno anglatuvchi kasb nomlariga: *oʻqituvchi, shifokor, adib, quruvchi, dehqon, tarbiyachi, bogʻbon, duradgor, imom* kabi, yaʼni jamiyatda insonlarga naf keltiruvchi kasb nomlari tahlil qilindi. Ingliz tili lugʻatiga mansub ijobiy maʼnoni anglatuvchi kasb nomlariga *ruhoniy (clergy), shifokor (doctor), hamshira (nurse), psixolog (psychologist), oʻqituvchi (teacher), oʻt oʻchiruvchi (firefighter)* kabilar tahlil qilingan. Oʻzbek til lugʻatida salbiy bahoga ega boʻlgan kasb nomlariga: *jallod, sudxoʻr, fohisha, oʻyinchi, folbin, koʻzboylogʻich, oʻgʻri, qimorboz, ogʻufurush* kabi jamiyatdagi mavjud qonun-qoidalarni chetlab oʻtib, turli xil salbiy stereotiplarga ega boʻlgan kasb nomlari talqin etildi. Ingliz tili lugʻatida salbiy bahoga ega boʻlgan kasb nomlari: *drug dealer (ogʻufurush), fortune teller/witch (sehr-jodu qiluvchi yoki folbin), prostitute/madam/pimp (fohisha), thief (oʻgʻri), con man (firibgar), people trafficker (odam savdosi bilan shugʻullanuvchi)* kabi nomlar tasniflandi.

Eʼtiborli tomoni shundaki, oʻzbek tili lugʻatida baʼzi kasb nomlari haqida gapirganimizda, kasb egasi faqatgina erkak kishi yoki ayol kishi boʻlishini muloqotda tushunib olamiz. Misol uchun: *qassob (erkak), doirachi (erkak), mexanik (erkak), agronom (erkak), aravakash (erkak), baliqchi (erkak), barmen (erkak), baxshi (erkak), dehqon (erkak), bichiqchi (ayol), hamshira (ayol), budkachi (ayol), gulchi (ayol), tikuvchi (ayol), doya (ayol), doʻppidoʻz (ayol), kassir (ayol), kutubxonachi (ayol)* kabi. Demak, gender omillarining kasb nomlari orqali ifoda etilishi tillarda saqlanib qolgan stereotip tushunchalarga bogʻliqdir,

ya'niy agar kasb jismoniy kuchni talab qilsa, bu kasb egasi, albatta, erkak kishi bo'lishi, noziklikni va ziyraklikni talab qilsa ayol kishi bo'lishi aniqlandi.

Bobning so'nggi fasli "*Kasb-hunarga oid so'zlarning lingvomadaniy va derivatsion xususiyatlari*" deb nomlangan bo'lib, bunda ingliz va o'zbek tillariga xos bo'lgan kasb-hunar nomlarining yasalish usullari va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilindi. Ma'lumki, shu vaqtgacha, o'zbek tilida so'z yasalishi fonetik, semantik, affiksatsiya, kompozitsiya turlarga ajratilib tasniflangan. Ingliz tili lug'atiga kiruvchi so'zlar asosan, ot, fe'l, ravish va sifat so'z turkumlari yordamida 2 xil usulda yasalishi berilgan: so'z yasovchi morfemalar va so'z shakli yasovchi morfemalar. Mazkur so'z yasash usullari bilan kasb-hunar otlari asosiy so'z turkumlarga prefiks va suffikslarni qo'shish orqali yasaladi²⁵. Masalan: kasb-hunar nomlarini yasovchi suffikslar: "-ant, ent" - *absorbent applicant, stimulant*, "-arian" - *antiquarian, grammarian authoritarian*, "-eer" - *auctioneer, electioneer, profiteer*, "-er" - *adviser, commander*, "-ist" *psychiatrist, botanist* shu kabi old qo'shimchalar orqali kasb nomlarini yasaydi.

